

Maktablarda matematika fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish vositalari

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Rozmamatova Mexriniso

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda matematika fanidan elektron ta'lim resursi yordamida mustaqil ta'limni tashkil etishni takomillashtirish vositalari ko'rib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, elektron ta'lim resursi, raqamli ta'lim resursi, mustaqil o'rganish, tahlil qilish,

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida elektron ta'lim resursini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Elektron ta'lim resursi ta'lim jarayonida sifat-samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini shakllantiradi. O'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi.

Lug'aviy jihatdan “elektron ta'lim resursi” bu- o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan va raqamli formada taqdim etiladigan fotografiyalar, statistik va dinamik modellar, virtual borliq va interfaol modellashtirish obektlari va kartografik materiallar, ovoz, belgili obektlar va ishchi grafikasi, matnli xujjatlar va boshqa o'quv materiallaridir.

Elektron ta'lim resursi – raqamli ta'lim resursini o'z ichiga oladi. Raqamli ta'lim resursi – didaktik maqsadlarga erishishga yoki alohida o'quv masalasini hal etishga qaratilgan tugallangan interfaol multimediali mahsulot. Raqamli ta'lim resursining muhim sifat ko'rsatkichi – uning interfaoligidadir. Raqamli ta'lim

resursi ta'lim oluvchining undan foydalanish paytida faol bo'lishni taqozo etadi. Elektron ta'lim resurslari deganda - elektron qurilmalardan foydalangan xolda taqdim etiladigan o'quv materiallari tushuniladi. umumiy holda elektron ta'lim resursiga o'quv videofilmlari va ovoz yozuvlari kiradi, ularni ko'rish yoki tinglash uchun oddiy SD pleyer ham yetarli bo'ladi. Elektron ta'lim resursini ta'limda qo'llash uchun zamonaviy va samarali qurilma kompyuterdir. Aynan kompyuter orqali taqdim etiladigan resurslarga diqqatni qaratamiz.

Elektron axborot-ta'lim resursi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil ta'lim olishning samarali usullarini qo'llash orqali o'quv materiallari va ilmiy ma'lumotlarni chuqur o'zlashtirishga mo'ljallangan manbadir. U o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish, ijodiy fikrlash malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Elektron ta'lim resursini mustaqil ta'limni tashkil etishning vositasi sifatida qarash mumkin:

Yaratish texnologiyasi bo'yicha. Tekstografik resurslar – teks va illyustratsiyalarni namoyish qilishda kitobdan farqli o'laroq, materiallar qog'ozda emas ekranda beriladi va navigatsiyada ham farqlanadi. Multimediali elektron ta'lim resursi – vizual va ovozli materiallardan tashkil topgan. Kitobdan farqli holda animatsiya korinishida jonli tarzda gavdalanadi.

Mazmuni bo'yicha: elektron qaydnomalar, topshiriqlar, lug'atlar, qiziqarli savollar, darajali testlar, darsliklar, laboratoriya va seminar topshiriqlari.

Tarqatish va foydalanish bo'yicha: internet-resurs, offlayn-resurs, elektron doska uchun resurslar.

Tarkibi bo'yicha: ma'ruza va seminar uchun mo'ljallangan mustaqil ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, vidiyeodarslar.

Qo'llash bo'yicha: dars jarayonida va mustaqil ta'limni tashkil etishda.

Barcha Maktab tizimida mustaqil ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Maktab tizimida elektron ta'lim resurslarning asosiy vazifalari:

- mustaqil ta'lim jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish;
- mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida hal etilishilozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;
- mustaqil ta'limni tashkil etish jarayoni mazmunini ishlab chiqish;



- mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida ta'lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish;
- kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish;

- fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga yetkazishni tezlashtirish.

Maktab tizimida elektron ta'lim resurslardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini va ta'lim samaradorligini oshirish;

- tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilarga nisbatan differensial yondashish hamda darslarni yuqori estetik darajada tashkil qilish (musiqa, animatsiya)

- o'quvchilarning matematik axborot oqimlarini tanlash qobiliyatlarini rivojlantirish, tasviriy ifodalash usulidan amaliy faoliyat ko'rsatish turiga o'tish, bu tarzda o'quvchi o'quv jarayonining subyektiga aylanadi.

Maktab tizimini mazmunan modernizatsiya qilish, ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga elektron ta'lim resurslari va multimediali texnologiyalarni joriy etish, bunda kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tiborni qaratgan holda Maktab tizimining sifat-samaradorligini tubdan yaxshilash maktab faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamutova, G. Sh. BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV-AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. KARSHI DAVLAT UNIVERSITETI, 298.

2. Mamutova, G. Sh. (2019). FORMIROVANIE KOMMUNIKATIVNO-INFORMATSIONNIX KOMPETENSII BUDUJIX UCHITELEY MATEMATIKI V USLOVIYAX PROFESSIONALNOY PODGOTOVKI. In INNOVATSIONNYYE PSIXOLOGICHESKIE I PEDAGOGICHESKIE

TEKNOLOGII KAK SREDSTVO POVYSHENIYA KACHESTVA
OBRAZOVANIYA (pp. 24-27).

3. Mamutova, G. Sh. (2019). FORMIROVANIE KOMMUNIKATIVNO-
INFORMATSIONNYX KOMPETENSII BUDUJIX UCHITELEY
MATEMATIKI V USLOVIYAX PROFESSIONALNOY PODGOTOVKI. In
INNOVATSIONNYYE PSIXOLOGICHESKIE I PEDAGOGICHESKIE
TEKNOLOGII KAK SREDSTVO POVYSHENIYA KACHESTVA
OBRAZOVANIYA (pp. 24-27).

4. Jaksilikovna, J. G. (2023). BOLAJAK FIZIKA FANI OQITUVCHILARI
METODOLOGIK TAYYORGARLIGIGA OID INNOVATSION
YONDASHUVLAR. IQRO, 2(2), 180-182.

5. Janabergenova, G. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF
DEVELOPING THE ANALYTICAL THINKING OF FUTURE PHYSICS
STUDENTS BASED ON THE DIALECTICAL APPROACH. Yevraziyskiy jurnal
sotsialnyx nauk, filosofii i kulturey, 3(4), 13-17.

6. JANABERGENOVA, A. J. (2023). AXBOROTLASHGAN TA'LIM
MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISH FAOLIYATI
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. Novateur Publications, 6, 1-142.

7. Jaksilikovna, J. A. (2022). Ta'lim jarayonini bulutli xisoblash texnologiyasi
asosida tashkil etishning pedagogik omillari. Gospodarka i Innovacje., 23, 77-82.

Research Science and Innovation House